

## **LOYIHA ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINING KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI SAMARADORLIGI**

**Sultonova Mamuraxon Ismoiljonovna**

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada zamonaviy ta’limda kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining o‘rni, bu ko‘nikmalarni shakllantirishda loyiha asosida o‘qitish metodikasining ahamiyati va pedagogik samaradorligi tahlil etilgan. Maqolada loyiha asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, muammoni tahlil qilish, yechim topish va qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarini rivojlanantirishga oid tajribaviy yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarni amaliy faoliyatga jalb qilish orqali ularning motivatsiyasi, darsga bo‘lgan qiziqishi va fikrlash darajasi ortishini ta’minlovchi omillar to‘g’risida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** loyiha asosida o‘qitish, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, metodika, innovatsion yondashuv, faol ta’lim, ko‘nikma, samaradorlik

Bugungi kunda ta’lim sohasida asosiy e’tibor o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga, ijodiy va tanqidiy qarashlarni shakllantirishga qaratilmoqda. An’anaviy ta’limda o‘quvchi asosan tayyor bilimni oluvchi sifatida qatnashgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda o‘quvchi — bilim egasi emas, bilim yaratuvchisiga aylanishi lozim. Bunday yondashuvda loyiha asosida o‘qitish metodikasi katta imkoniyatlarga ega.

Loyiha asosida o‘qitish metodikasi — bu o‘quvchilarning real hayotiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan, ularni amaliy faoliyatga jalb qiluvchi, ko‘p bosqichli, tadqiqot va ijodiy yondashuv asosidagi o‘qitish shaklidir. Bu metodika o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtiradi, o‘z fikrini asoslab berishga, mantiqan tahlil qilishga va turli nuqtai nazarlarni solishtirishga o‘rgatadi.

Kreativ fikrlash — bu yangicha qarash, noodatiy yondashuv, mavjud muammoni yangicha yo‘l bilan hal qilish qobiliyatidir. Loyiha asosida o‘qitish jarayonida o‘quvchilar o‘z mustaqil loyihalari ishlab chiqish jarayonida turli g‘oyalarni ilgari suradi, muammoni yangicha burchak ostidan ko‘ra boshlaydi. Bu esa kreativ fikrlashning shakllanishiga zamin yaratadi.

Tanqidiy fikrlash esa o‘quvchilarning ma’lumotni tahlil qilish, baholash, dalillarga asoslanib xulosa chiqarish va mavjud g‘oyalarga tanqidiy yondashish qobiliyatidir. Loyiha asosida o‘qitish metodikasi bu ko‘nikmalarni rivojlanantirishga katta hissa qo‘sadi, chunki loyiha doirasida o‘quvchilar faktlarni izlaydi, tahlil qiladi, bahs-munozaralarda qatnashadi va o‘z nuqtai nazarini asoslaydi.

Misol uchun, tabiiy fanlarda ekologik muammolarga oid loyiha ishlari o‘quvchilarning atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatini oshiradi, tarix darslarida esa tarixiy voqealarga turli

nuqtai nazardan yondashishga undaydi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchilar passiv tinglovchi emas, faol ishtirokchiga aylanishadi.

O‘qituvchining roli esa loyiha davomida yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va tahlilchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon o‘quvchining mustaqilligini oshirib, ularda o‘zini anglash va o‘z fikrini himoya qilish madaniyatini shakllantiradi.

Loyiha asosida o‘qitishning asosiy xususiyatlari

1. Real hayotiy vaziyatlarga asoslanadi.

O‘quvchilar o‘z loyihalari orqali atrof-muhitdagi real muammolarni aniqlashga va ularni hal qilish yo‘llarini topishga harakat qilishadi. Bu esa ularni faqat nazariy emas, amaliy jihatdan ham faol bo‘lishga undaydi.

2. Tadqiqot faoliyatini rivojlanтирди.

Loyiha jarayonida o‘quvchilar mustaqil ravishda ma’lumot izlash, solishtirish, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi bosqichlarni o‘zlashtiradi. Bu esa tanqidiy fikrlashning asosiy tamoyillariga to‘g‘ri keladi.

3. Hamkorlikda ishlashni o‘rgatadi.

Ko‘pchilik loyihalar guruhda bajariladi. Guruhda ishlash orqali o‘quvchilar boshqalarning fikrini tinglash, murosaga kelish, o‘z fikrini asoslash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

4. Motivatsiyani oshiradi.

O‘quvchilar o‘zлари qiziqqan mavzuda loyiha qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa ularning ta’limga bo‘lgan ichki motivatsiyasini oshiradi, darsga faol qatnashishga undaydi.

5. Refleksiya va o‘z-o‘zini baholashni rag‘batlantiradi.

Har bir loyiha yakunida o‘quvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi. Qanday xatolar qildi, nimalarni o‘rgandi, nimani boshqacha qilsa bo‘lardi – bu savollar orqali tanqidiy fikrlash yanada mustahkamlanadi.

Xulosa

Loyiha asosida o‘qitish metodikasi o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlanrishda samarali vositadir. Bu metodika nafaqat bilim berishga, balki hayotiy muammolarni hal qilishga, jamoada ishlashga, o‘z fikrini mustaqil ravishda shakllantirish va ifodalashga o‘rgatadi. Zamonaviy ta’limda ana shunday faol, integrativ va interaktiv metodik yondashuvlar ustuvor bo‘lishi kerak.

## ADABIYOTLAR:

1. Thomas, J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. The Autodesk Foundation.
2. Bell, S. (2010). Project-Based Learning for the 21st Century. The Clearing House, 83(2), 39-43.

3. Johnson, L. va boshqalar. (2016). Horizon Report: Higher Education Edition. The New Media Consortium.
4. Qosimov J.A. (2020). Muhandislik kompyuter grafikasi. Toshkent: Fan ziyosi nashriyoti.
5. Turayev X.A., Muhammadiyev E.T. (2022). Muhandislik kompyuter grafikasi fanini AutoCAD grafik dasturining zamонавија avlodlaridan foydalanib o‘qitish metodikasi (AutoCAD 2021 misolida). Toshkent: Lesson-Press nashriyoti.